

**ISSN 2181-2764
2025**



SHARQ FILOLOGIYASI JURNALI



ВОСТОЧНЫЙ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**DESCRIPTION OF LIFE EVENTS IN UZBEK NOVELS****Nargiza Abdusamatovna Fuzaylova***Teacher, Tashkent State University of Oriental Studies*nargizafuzaylova89@gmail.com*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Uzbek novel, real-life events, history, society, human, realism, national identity, culture, literature.

Received: 24.11.25**Accepted:** 25.11.25**Published:** 26.11.25

Abstract: This study explores the depiction of real-life events in Uzbek novels. It analyzes historical incidents, social issues, and human relationships reflected in the novels. The authors' methods of artistic interpretation of real-life events, and their skill in revealing the spirit of the era through characters are examined. The reflection of realistic details, local customs, and cultural elements in the novels are studied. The impact of real-life events in novels on shaping national identity is also determined.

O'ZBEK ROMANLARIDA HAYOTIY VOQEALAR TASVIRI**Nargiza Abdusamatovna Fuzaylova***O'qituvchi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*nargizafuzaylova89@gmail.com*Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: o'zbek romani, hayotiy voqealar, tarix, jamiyat, inson, realizm, milliy o'zlik, madaniyat, adabiyot.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot o'zbek romanlarida hayotiy voqealar tasvirini o'rganishga bag'ishlangan. Romanlarda aks etgan tarixiy hodisalar, ijtimoiy muammolar va insoniy munosabatlar tahlil qilinadi. Mualliflarning hayotiy voqealarni badiiy talqin etish uslublari, personajlar orqali davr ruhini ochib berish mahorati ko'rib chiqiladi. Romanlardagi realistik detallar, mahalliy urf-odatlar va madaniy elementlarning aks etishi o'rganiladi. Shuningdek, romanlarda hayotiy voqealarning qanday qilib milliy o'zlikni shakllantirishga ta'siri aniqlanadi.

ИЗОБРАЖЕНИЕ ЖИЗНЕННЫХ СОБЫТИЙ В УЗБЕКСКИХ РОМАНАХ

*Наргиза Абдусаматовна Фузайлова**Преподаватель**Ташкентский государственный университет востоковедения*nargizafuzaylova89@gmail.com*Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: узбекский роман, реальные события, история, общество, человек, реализм, национальная идентичность, культура, литература.

Аннотация: Данное исследование посвящено изучению отображения реальных событий в узбекских романах. Анализируются исторические события, социальные проблемы и человеческие отношения, отраженные в романах. Рассматриваются методы художественной интерпретации реальных событий авторами, и их мастерство в раскрытии духа эпохи через персонажей. Изучается отражение реалистичных деталей, местных обычаев и культурных элементов в романах. Также определяется влияние реальных событий в романах на формирование национальной идентичности.

Kirish. O'zbek romanlari o'zida xalq hayotining turli jabhalarini aks ettirgan bebaho manbalardir. Unda hayotiy voqealar, tarixiy burilishlar va insoniy dramalar mohirona tasvirlangan. Ushbu tadqiqot o'zbek romanlaridagi hayotiy voqealarning aks etish usullarini, ularning ijtimoiy, siyosiy va madaniy ahamiyatini o'rganishga qaratilgan. Hayotiy tasvir, xalq og'zaki ijodi namunalari va muallifning individual uslubi orqali hayotiy voqealarning qanday aks etishi tahlil qilinadi. Shuningdek, romanlardagi hayotiy voqealarning o'quvchiga ta'siri, ularning milliy o'zlikni anglashga qo'shgan hissasi aniqlanadi. Tadqiqot o'zbek romanchiligining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. O'zbek adabiyotida XX asrning boshlaridayoq romanlar yozila boshlanganiga qaramay, adabiyotshunoslar talqinicha u asarlar janr talabiga javob bermaydi va o'zbek adabiyotidagi birinchi roman Abdulla Qodiriy qalamiga mansub "O'tkan kunlar" romanidir. "Mehrobdan chayon" asari esa yolg'iz Abdulla Qodiriyning ikkinchi asari emas, balki o'zbek romanchiligidagi ikkinchi romandir.

Shu tariqa jadidlar o'zbek adabiyotida romanchilikni boshlab berdilar va bu keng omma tomonidan juda ham yaxshi qabul qilindi. Bundan so'ng ham o'zbek adabiyotida ko'plab romanlar vujudga keldi: Abdulla Qodiriyning tugallanmay qolgan "Obid ketmon" asari, Cho'lponning

“Kecha va kunduz” asari, Oybekning “Qutlug‘ qon” asari, Abdulla Qahhorning “Sarob” va boshqa ko‘plab asarlar bunga misol bo‘la oladi.

O‘zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy XX asr o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biridir. Adib hayoti davomida rostgo‘y va haqiqatgo‘y inson bo‘lib yashadi va asarlarida ham bosh mavzu sifatida haqiqatga urg‘u berdi. Abdulla Qodiriyning o‘zbek adabiyotiga qoldirgan adabiy merosi juda ham ulkandir va ularning eng mashhurlari uning romanlaridir.

Abdulla Qodiriy o‘zining kamtarona ta‘biri bilan roman yozishi haqida shunday deydi: “Yozmoqqa niyatlanganim ushbu- “O‘tkan kunlar”, yangi zamon ro‘monchilig‘i bilan tanishish yo‘lida kichkina bir tajriba, yana to‘g‘risi bir havasdir...”. Lekin adibning hadiklari o‘laroq, asar kitobxonlar tomonidan juda ham yaxshi kutib olindi va haligacha o‘z qiymatini yo‘qotmadi.

Bizga ma‘lumki, ba‘zi bir asarlar bir marotaba o‘qiladi va tezda unitiladi, lekin bu asar mana oradan bir asrdan oshiqroq vaqt o‘tishida qaramasdan hali ham keng kitobxonlar va muxlislar qo‘lidan tushmay kelmoqda. “O‘tkan kunlar” romani dunyoning bir nechta tillariga tarjima qilingan va xorijlik mutaxassislar tomonidan ham yuqori baholangan. Ushbu romanning yaratilish tarixi, mazmun-mohiyati, voqealar jarayoni haqida adabiyotshunosligimizda ko‘plab maqolalar, ilmiy ishlar va kitoblar yaratilgan.

Adib asarning boshlanish qismida quyidagi fikrlarni aytib o‘tadi: “Moziyg‘a qaytib ish ko‘rish xayrlik”, -deydilar. Shunga ko‘ra mavzuni moziydan, yaqin o‘tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo‘lg‘an keyingi “xon zamonlari”dan belguladim.” Darhaqiqat “O‘tkan kunlar” asarida Qo‘qon xonligining so‘nggi hukmdori Xudoyorxonning hukmronlik davri voqealari tasvirlangan, tarixiy shaxslar va tarixiy voqealar haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lishimiz mumkin. Ushbu asar bizga o‘tmishdagi o‘zbek millatining muayyan vaziyatdagi turmushi, tarixiy sharoiti, rasm-rusmlari va ruhiy-ma‘naviy dunyosi haqida ma‘lumot olishimiz uchun oyna vazifasini o‘taydi. Asarda bir nechta tarixiy shaxslar va tarixiy voqealar bayon qilingan. Bular Qo‘qon xoni Xudoyorxon, uning qaynotasi Musulmonqul, Abdurahmon oftobachi va Toshkent hokimi Azizbek obrazlaridir. Tarixiy voqealar bayoniga kelsak, Toshkent hokimi Azizbekning halqqa me‘yoridan ortiq soliqlar solgani, xalqning unga qarshi qo‘zg‘oloni va Azizbekni Normuhammad qushbegi yordamida hokimlikdan yiqitish voqeasidir. Asarda biz yana ko‘plab tarixiy voqelarning guvohiga aylanishimiz mumkin.

O‘zbek romanchiligidagi yana bir noyob asar Abdulla Qodiriy ijodiga mansub, o‘zbek romanchiligidagi ikkinchi asar “Mehrobdan chayon” asaridir. Bu asar ham qisman tarixiy voqelarni qamrab olgan bo‘lib, Qo‘qon xonligi davri va Qo‘qon xoni Xudoyorxon timsoli tasvirlangan. Asar voqelari xonlikdagi oddiy xalqning qiyinchiliklari, mayda hunarmandlarning azoblanishi, xotin-qizlarning rahmsizlarcha tasarruf etilishi kabilarni o‘z ichiga oladi. Garchi

Xudoyorxon go‘zal imoratlar, masjidlar, bog‘lar barpo etishiga qaramay, ariqlar qazdirib yurtini obod qilayotganday ko‘rinsada, aslida bu ishlarning barchasi qora xalqning peshona teridan bunyod bo‘lgan edi, ularning ko‘z yoshlari, qonlari ariqlarda oqgan edi. Xudoyorxon juda ham zolim, xotinlarni ko‘paytirishga va kayfu safoga hirs qo‘ygan, faqatgina o‘zini rohat-farog‘atini o‘ylagan xon bo‘lgan. Adib bu voqealarni asarda juda ham mohirona tasvirlagan va kitobxon bularni “Zulm o‘chog‘i”, “Haram”, “Qirq qizlar”, “Xon ko‘ngil ochmoqchi” kabi boblar orqali bilib olishlari mumkin. Ushbu asar orqali tariximizning yangi qirralarini kashf qilishimiz va voqealarni jonli tarzda o‘qishimiz mumkin.

Asardagi Anvar va Ra‘no o‘rtasidagi go‘zal muhabbat ham kitobxon e‘tiboridan chetda qolmaydi, bu ikki juftlik bir-biriga juda ham munosib va ularning pok sevgisi ham g‘oyat go‘zal tasvirlangan.

- Agar Farhodning Shirin, bo‘lsa Majnunlarning Laylosi
Nasib o‘lmish menga gulshan aro gullarning - Ra‘nosi.

(Mirzo)

- Agar or etsa Layli haqlidir Qaysning jununidin
Ne baxt Ra‘no xaridoring talab ahlining - Mirzosi.

(Ra‘no)

Asarda yana boshqa ko‘plab qahramonlar borki, ular orqali kitobxon sevgi va sadoqat, mehr-muhabbat, ezgulik va razillikkabi xislatlarni ko‘rishlari mumkin. O‘zbek adabiyotidagi ikkinchi ulkan roman ham keng kitobxonlar tomonidan juda ham yaxshi kutib olindi va haligacha kitoblarimiz rastalarimizni bezab turibdi.

Jadid adabiyotining noyob asarlaridan biri Abdulhamid Cho‘lpon qalamiga mansub “Kecha va Kunduz” romanidir. Romanda XX asr boshlarida xalqimizning g‘aflat uyqusida yotgan holati tasvirlangan. Shuning uchun jadidlar ushbu noxush holatni o‘zgartirish, ushbu sodda xalqni to‘g‘ri yo‘lga boshlash uchun dastlabki harakatlarni boshlaydilar. “Kecha va Kunduz” asari o‘zbek adabiyotidagi ilk roman-dilogiya, ya‘ni ikki kitobdan iborat asar hisoblanadi. Lekin taassufki, asarning faqatgina “Kecha” qismi bor bo‘lib, “Kunduz” haqida ma‘lumot aniq emas. “Kecha va Kunduz” romanida jamiyat hayotidagi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ziddiyatlar va kelishmovchiliklar ifodalangan. Asarda sodda va mehnatkash xalqning, ayniqsa xotin-qizlarning og‘ir turmushi, xo‘rlklarga va mashaqqatlarga to‘la hayoti jonli voqealar va yorqin misollar bilan ta‘sirli va ishonarli tarzda berilgan.

Asardagi bosh qahramonlardan biri hisoblangan go‘zal va xushovoz, bolalarday beg‘ubor Zebi timsoli ham bunga yorqin misol bo‘ladi. Muallif yana Zebi va uning oilasi misolida butun bir xalqning o‘sha davrdagi fojeali hayotini ko‘rsatib beradi. Zebi obrazi orqali adib o‘sha davrdagi qizlarning ichki kechinmalari va ruhiy holatini tasvirlagan va quyidagi jumlar orqali bu holatni

tasavvur qilishimiz mumkin: “Zebi (Zebinisa)ning qish ichi siqilib, zanglab chiqqan, ko‘ngli bahorning iliq hovuri bilan ochila tushgan; endi, ustiga ustiga poxol to‘shalgan aravada bo‘lsa ham, allaqaylarga, dala-qirlarga chiqib yayrashni tusay boshlagan edi...”

Ushbu asarda yozuvchining maqsadi avom xalqni g‘aflat uyqusidan uyg‘otish, Zebi fojiasining boshqa takrorlanmasligi va Razzoq so‘fidek so‘qir otalarni ko‘zini ochishdan iborat edi. Kitobxon sarni o‘qish davomida mana shu illatlarni famlaydi va to‘g‘ri xulosa chiqara oladi.

O‘zbek romanchiligida birinchi trilogiya-uchta romandan iborat asar “Ufq” trilogiyasining buyuk o‘zbek adibi, O‘zbekiston xalq yozuvchisi, O‘zbekiston qahramoni Said ahmad qalamiga mansubdir. Ushbu trilogiya ikkinchi jahon urushi, urushdan keyingi davrlarni o‘z ichiga oladi, ya’ni 10 yillik voqealar tafsiloti berilgan. Trilogiyada o‘sha davrlarda xalq boshiga tushgan musibatlar, odamlar qalbidagi orzu-armonlar ifodasi yozuvchining yuksak mahorati bilan ta’riflangan.

Ushbu sarda Ikromjon, Jannat xola, Nizomjon, Azizxon, Dildor, Asrora kabi jonli, yorqin va milliy obrazlar berilgan.

Taniqli o‘zbek yozuvchisi, o‘zbek adabiyotining yorqin yulduzi Pirimqul Qodirov juda ham ko‘plab romanlar yozgan va bu asarlar kitobxonlar tomonidan haligacha sevib mutolaa qilinadi. Adib o‘zbek adabiyoti romanchiligiga ulkan hissa qo‘shgan va turli davrlarda, turli mavzularda romanlar yozgan.

“Yulduzli tunlar” romani adibning eng yorqin ijod namunalaridan biridir. Ushbu asar temuriyzoda shoh Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga bag‘ishlanadi. Asar Mirzo Boburning salkam qirq yillik mashaqqatli va murakkab hayot yo‘lini ifodalaydi. Adib asarda Mirzo Bobur shaxsiyatini shunday ta’riflaydiki, kitobxon shox va shoirning ichki kechinmalaridan ogoh bo‘ladi, o‘zini o‘sha davrda shunday ulug‘ xon davrida yashayotgandek his qiladi, ko‘nglida g‘urur hissi uyg‘onadi.

O‘zbek romanchiligiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan, noyob iste’dod egasi, o‘zbek adabiyotining o‘chmas siymosi O‘tkir Hoshimovdir. O‘tkir Hoshimov o‘zining bir nechta durdona asarlari bilan kitobxonlar qalbini zabt etgan. Adib qalamiga mansub “Ikki eshik orasi” qamrovi kengligi, kitobxon qalbiga yaqinligi bilan ajralib turadi. Ushbu asar ikkinchi jahon urushidan oldingi, urush davri va urushdan keyingi davr voqealarini qamrab oladi. Ushbu asar mashaqqatli davrlarda frontda va front ortida xizmat qilgan o‘zbek xalqining jasorati haqida bayon etadi. Qishloqning jonkuyar va mehnatkash odamlari Orif oqsoqol, Husan duma, Shomurod, Komil tabib, Qora amma, Robiyalarning fidokorona xizmatlari tahsinga loyiq. Ular garchi urush bo‘layotgan joydan olisda bo‘lsalar ham, urushdagi mard o‘g‘lonlarimizga madad bo‘lishdi, og‘ir damlarda bir-birlariga yelkadosh bo‘lishdi. Qahraton qishning sovuq kunlari frontdagi odamlarimizga oziq-ovqat jo‘natish uchun dalada mehnat qilishadi, o‘zlari yemay ularga

ilinishadi. Ushbu voqealar tasvirida biz o'zbek xalqining urushda ko'rsatgan jonbozliklarini ko'rishimiz mumkin.

O'zbek romanlarida hayotiy voqealar tasviri milliy adabiyotimizning muhim yo'nalishi bo'lib, u xalqning turmush tarzi, ruhiy dunyosi va tarixiy tajribasini aks ettiradi. Dastlabki o'zbek romanlarida realizm ustuvor bo'lib, jamiyatdagi mavjud muammolar, an'analar va ijtimoiy ziddiyatlar haqqoniy tasvirlangan. Keyingi davrlarda esa psixologik tahlilga e'tibor kuchayib, insonning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari chuqur o'rganilgan.

O'zbek romanlarida tarixiy voqealar xalqning o'tmishga bo'lgan munosabatini, milliy o'zlikni anglash jarayonini aks ettiradi. Shuningdek, romanlarda ijtimoiy hayotdagi muammolar, adolatsizlik, korrupsiya kabi illatlar ham tasvirlangan bo'lib, jamiyatni tozalash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

So'nggi paytlarda esa o'zbek romanchiligida modern va postmodern uslublar qo'llanilib, badiiy ifoda imkoniyatlari kengaydi. Bu esa romanlardagi tasviriy vositalar, ramzlar va metaforalarning boyishiga olib keldi. Xulosa qilib aytganda, o'zbek romanlarida hayotiy voqealar aks etishi doimiy ravishda o'zgarib va takomillashib boradi hamda o'zbek adabiyotining jahon adabiyotida o'ziga xos o'rnini egallashiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar.- Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat nashriyoti, 2019.-B. 146
2. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon.- Toshkent: G'afur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.-B. 5
3. Cho'lpon. Kecha va kunduz. -Toshkent: O'zR FA "Fan" nashriyoti, 2018
4. Said Ahmad. Ufq.- Toshkent: "Sano-standart" nashriyoti, 2019.- B. 323
5. Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. -Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2010.-B. 56
6. O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. -Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2018. - B.
7. Fuzaylova N. A. Analysis of the expression and specific characteristics of neologisms in translation. // Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. — 2024. — T. 21, № 2. — B. 175–180. — URL: <https://webjournal.ru/index.php/ilmiy/article/view/5109> (
8. Sobirova G. A. Isajon Sultonning "Avliyo" hikoyasi inglizcha tarjimasining lingvistik va adabiy tahlili // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 5. — B. 172-183. [https://doi.org/ 10.36078/1762332566](https://doi.org/10.36078/1762332566)
9. Fuzaylova N.A. O'tkir Hoshimov asarlarida ichki kechinmalarning ifodalanish usullari ("Ikki eshik orasi" asari misolida). Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. — 2025. — № 6 (6 июн). — B. 23–28.